

ADABIYOT BO‘YICHA BIRINCHI FRANSUZ YOZUVCHISI ANNI ERNO NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORI

Safarboyeva Shahruza Dilmurod qizi

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: shaxruzasafarboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuz adibasi Anni Ernoning hayoti va ijodi, Gallimard nashriyotida nashr etgan asarlari, bir qator adabiy mukofotlari va katta bir butunlikni tashkil etuvchi «Yosh yigit» nomli asari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: avtofikr, sinfiy ong, gender tenglik, ijtimoiy ahvol va o‘z-o‘zini kashf etish.

Anni Erno 1940-yil 1-sentabrda Fransiyaning Lillbon shahrida tug‘ilgan. Uning bolaligi Normandiyada Ivto shahrida o‘tgan. U yerda uning ota-onasi kichik kafe yuritishgan.[1]. Normandiyaning xususiy katolik maktabida u o‘zidan ko‘ra badavlatroq bo‘lgan qizlar bilan o‘qigan va ijtimoiy kambag‘allikni boshidan kechirgan. 1958-yilda 18 yoshida u yozgi lagerda, ishlash uchun birinchi marta ota-onasidan uzoqda yolg‘iz qoladi. U yerda u erkin va jamiyat hayotini boshidan kechiradi. Bu tajribani “Qiz xotirasi”(“Mémoire de fille”) kitobida tasvirlaydi. Xuddi shu kitobida u o‘zining 1960-yilda o‘qituvchi bo‘lib boshlagani va ta‘limdan voz kechib, Ruen Universitetining adabiyot fakultetida o‘qishga qaror qabul qilganligi to‘g‘risida ta‘kidlab o‘tgan. Ruen Universitetini tugatgach, boshlang‘ich va o‘rta maktablarda adabiyotdan dars bergan. Aynan shu davrda u hech qachon nashr etilmagan birinchi qo‘lyozmasini yozgan. 1974-yilda Anni Erno o‘zining Gallimard bilan birgalikda "Bo‘sh jovonlar"("Les Armoires vides")nomli birinchi kitobi nashr etiladi.Ushbu birinchi romani kamtarin kelib chiqishiga g‘arq bo‘lgan yosh ayolning hayotini va bilim yetishmasligi tufayli ilm-fanni o‘rganishi to‘g‘risidadir[1]. 1981-yilda « Muzlagan Ayol » (« Lan femme gelée ») romani nashrdan chiqarilgan. Bu romanda erkak hamkasblari tomonidan uchragan tazyiqlari, umidsizliklari haqida an‘anaviy e‘tiqodlarni ozod qilinishini qanday ayblashlari to‘g‘risida ilgari surilgan g‘oya va fikrlar haqida yozgan.1983-yil "Joy" ("La place") romanida sinfiy ong va jamiyat farovonlikka intilishida takomillashtirish haqida oilaviy fikrlar targ‘ib qilingan.1987-yilda "Ayol" (" Une femme") romani nashr qilinadi. Ushbu kitobda gender tenglik va ijtimoiy ahvol yonma yonligi to‘g‘risida yozilgan asardir. Yozuvchi romanida onasini bosh qahramon sifatida gavdalandirgan. 2000-yilda « Tadbir »

("L'événement") muallifning murakkab tilli kitoblaridan biri hisoblanadi. Bu kitobda abort haqida soʻz boradi. 2005-yilda "Fotosuratdan foydalanish" ("L'usage de la photo") asari Gallimard nashriyotida chop etiladi. Anni Ernoning bu romani koʻkrak bezi saratoni haqidaligi kitobsevarlar diqqatini oʻziga jalb etadi. Bu kitob haqida gapirib berish uchun yana bir yechim topish kerak, aslida buni diqqat bilan oʻqimaguncha yozuvchi nimani tasvirlaganini bilib boʻlmaydi.[1][2]

Anni Erno bir qator adabiy mukofotlar sovrindori:
Renaudo mukofoti (1984, „La Place“ romani uchun),
Marguerite Duras mukofoti (2008, „Les Années“),
Fransua Mauriak mukofoti (2008, „Les Années“),
Fransuz tili mukofoti (2008),
2014-yildan beri Serji-Pontua universitetining faxriy doktori[3]
Adabiyot boʻyicha Nobel mukofoti (2022).

Anni Ernoning bir qator kitoblari

- Les Armoires vides, Parij, Gallimard, 1974; Gallimard, 1984-yil
 - La femme gelée, Parij, Gallimard, 1981;
 - La Place, Parij, Gallimard, 1983;
 - Une Femme, Parij, Gallimard, 1987
 - Ehtiros oddiy, Parij, Gallimard, 1991; Gallimard, 1993-yil
 - Jurnal du dehors, Parij, Gallimard, 1993-yil — La Honte, Parij, Gallimard 1997[6]
 - Je ne suis pas sortie de ma nuit, Parij, Gallimard, 1997-yil
 - La Vie, 1993-1999, Parij, Gallimard, 2000-yil
 - L'Événement, Parij, Gallimard, 2000-yil
 - Se perdre, Parij, Gallimard, 2001-yil — L'Occupation, Parij, Gallimard, 2002-yil
 - L'Usage de la photo, Mark Mari bilan, Parij, Gallimard, 2005-yil
 - Les Années, Parij, Gallimard, 2008-yil[7]
 - L'Autre fille, Parij, Nil 2011-yil
 - L'Atelier noir, Parij, Busclats nashrlari, 2011-yil
 - Écrire la vie, Parij, Gallimard, 2011-yil
 - Retour à Yvetot, Editions du Mauconduit, 2013-yil
 - Regarde les lumières mon amour, Seuil, 2014 -yil
 - Memoire de fille, Gallimard, 2016-yil
- « Adabiyot boʻyicha 2022-yilgi Nobel mukofoti isteʼdodli yozuvchi Anni Ernoga beriladi ». Nobel mukofoti qoʻmitasi 3-10-oktyabr kunlari joriy yil uchun Nobel

mukofoti sovrindorlarini e'lon qilishadi. Bu kunda mukofotning fizika, kimyo va tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha sovrindorlar ham aniqlandi. 6-oktyabr kuni Shvetsiya Qirollik Fanlar akademiyasi haftaligi doirasida adabiyot bo'yicha 2022-yilgi Nobel mukofoti sovrindori ham e'lon qilinadi. Ushbu yo'nalishda nufuzli mukofot iste'dodli fransuz yozuvchisi Anni Ernoga beriladi.

Ma'lum qilinishicha, Anni Erno yigirmadan ortiq kitoblar muallifi, o'ndan ortiq adabiy mukofotlarni qo'lga kiritgan. Qarorning asosli qismida yozuvchi "shaxsiy xotiraning kelib chiqishi, o'ziga xosligi va jamoaviy cheklovlarni ochib beradigan" jasorati va aniqligi uchun taqdirlangan. Qayd etilishicha, o'z ishida "Anni Erno jinsi, tili va sinfi bilan ajralib turadigan hayotni qat'iyat bilan hamda turli tomonlardan o'rganadi". Mutaxassislarning ta'kidlashicha, uning yozish yo'li uzoq va mashaqqatli bo'lgan. "Bu ajablanarli emas, u butun adabiy dunyoda yaxshi tanilgan va [uning asarlari] ko'plab tillarga tarjima qilingan", - deydi Nobel qo'mitasi raisi Anders Ulsson[4]

Nima uchun Anni Ernoga 2022-yil adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti beriladi? Uning barcha romanlari shaxsiy hayotining epizodlarini aks ettiradi. Bunda bolalik, martaba, nikoh va onalik, abort va ko'krak saratoni kasalligi va onasining o'limi to'g'risida yozgan.[1][3] Anni Ernoning shaxsiy xotiralari butun bir avlodning umumiy xotirasiga singdirilgan romanlari kechgan davrning haqiqiy guvohiga aylanib ulgurgan. Yozuvchining so'ziga qaraganda, an'anaviy janrlar doirasida emas, balki o'ziga xos tarzda o'zini kashf etishni afzal ko'rgan. Uning ishi hayot yo'lida qanday rivojlanayotgan bo'lsa, u kitoblarida xuddi shunday tasvirlaydi. Onasi haqida yozgan "Ayol" ("Une femme") romani, oilaviy hayoti to'g'risida yozgan "Muzlagan Ayol" ("La femme gelée") asari esa abort haqida "Tadbir" ("L'événement"), yoki ko'krak saratoni "Fotosuratdan foydalanish" ("L'usage de la photo") asarlari shular jumlasidandir. Anni Ernoning eng asosiy mavzusi va maqsadi bu - ayollar sinfiy ong, azob-uqubat va hayotiy o'rganishlarini qog'ozda tasvirlash bo'lgan.[3] U shunday yashab, hayot hujumlarini yengib o'tgan kuchli ayollardan biridir. U o'z asarlari orqali o'zini ozod qilganidek, xalqning bir qismini ozod qiladi, shuning uchun o'quvchilar ham ko'pchilikka xos bir tuyg'u borligini bilishadi, shunisi bilan qiziqib o'qishadi va boshqa asarlardan ajralib turadi.

Anni Erno avtobiografik matnlarni yozmaydi, u avtofikrni ma'qul ko'radi, boshqa tomondan qaraganda avtofikr va avtobiografiya o'rtasida farq bor. U turli mavzular va dalillar orqali o'z hayotini hikoyaviy tarzda aks ettishni yaxshi ko'radi bu unga oltin yo'lni ochib beradi. Anni Erno avtofikrini yozadi shu bilan u o'quvchi o'rtasida sheriklik yaratadi. Shuning uchun ham kitobsevarlarni kitobga bo'lgan qiziqishi ortadi. U avtofikrni ma'qul ko'radi o'z hayotini romanlashtiradi. Avtobiografik asarda

esa mavjud bo'lgan fantastik hayotni romanlashtiradi, shunisi bilan avtofikrdan farq qiladi.

Katta bir butunlikni tashkil etuvchi kichik kitob

Anni Ernoning so'nggi "Yosh yigit" ("Le jeune homme") romani nashr etilmagan matn bo'lib, unda muallif o'zidan o'ttiz yosh kichik odam bilan yashagan sarguzashti haqida hikoya qiladi. U bu tajribani qanday qilib yana bir necha oy ichida yoshligidagi "janjalli qiz" ga aylantirganini tushuntirib beradi. Vaqt o'tishi bilan sayohat unga yozishda hal qiluvchi qadam tashlashga imkon beradi. 1998 - 2000 - yillarda bu munosabatlar haqida yozishni boshlagan vaqtida bu uning o'zidan 30 yosh kichik bola bilan bog'laydi va bu munosabatlarda tartibsizlik borligi sababi 2000 yilda men ushbu matnni yozishni to'xtatdim deb ta'kidlaydi. Anni Erno nashr etilmagan, qoralamalarni, o'ziga bag'ishlangan Herne daftarini qidirganida, bu matnni ko'radi va qo'liga oladi. Yosh yigit bilan suhbatidan keyin unda o'zini yoshligini ko'radi va xotiralarini eslaydi. Bu romanini davom ettirishiga o'zida kuch topadi.

Xulosa qilib aytganda, har zamonning o'z yozuvchilari bor ekan biz kabi kitobsevarlar tomonidan o'qib izlanib boriladi. Shuning uchun ham adabiyot yashaydi va yashashda davom etaveradi. Adabiyot - o'tmish bugun va kelajak demakdir. Adabiyot serqirra ijodkorlar mevasi. Shunday serqirra ijodkorlardan biri bo'lmish fransuz ayoli Anni Ernodir. Adabiyot bu – badiiylik, bo'rttirishlar, rango - ranglik bo'lsa, Anni Erno adabiyotni real hayot bilan bog'lagan. Adabiyot nur – u har doim cheksiz, oxiri yo'q, poyonsiz okeandir. Unga sho'ng'igan sayin har bir jabhalarini ko'rib hayron qolasiz. Adabiyotda har xil yo'nalish, janrlar bor. Anni Erno bo'lsa adabiyotning kutilgan yo'lini ochdi va uni ajablanarli tarzda yozdi. U reallashgan janrda, hayotda bo'lib o'tgan voqealarni yoritgan. Ularni esa bizdek kitobxonlarga badiiylashtirib taqdim etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. France Inter.
2. „Biographie“. (2018-yil)
3. Auteurs contemporains.
4. „Annie Ernaux : "Écrire quand j'avais 20 ans, c'était plutôt dans l'idée que j'avais des choses uniques à dire"“ (fr). France Culture (15-mart 2020-yil).
- 5 „Annie Ernaux“ (fr). Gallimard.
6. Tison, Jean-Pierre „Critique: Annie dans l'arrière-boutique“ (fr). L'EXPRESS (1-fevral, 1997). 29-oktabrda 2010-yil asl nusxadan
7. Massoutre, Guylaine „Littérature française - La chronique douce-amère d'Annie Ernaux“ (fr). Le devoir (19-aprel 2008-yil) 31 oktabr 2010-yil